

OILA MUHITIDA OTA-ONA MUNOSABATLARINING BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Esonov O.A.

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Xorijiy tillar kafedrası

Annotatsiya: Maqolada oiladagi ota-ona munosabatlarining bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zbek oilalariga xos tarbiyaviy an'analar, zamonaviy psixologik yondashuvlar hamda ota-onaning shaxsiy namunasi masalalari yoritilgan. Oilaviy muhitda hukm suradigan ruhiy barqarorlik, intizom, mehr-oqibat va talabchanlikning bola ijtimoiy faolligi, axloqiy qarashlari va psixologik yetukligiga ta'siri asoslab berilgan. Shuningdek, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligining tarbiyadagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ota-ona munosabatlari, oila tarbiyasi, psixologik muhit, shaxsiy namuna, o'zbek oilasi, axloqiy tarbiya, bola rivoji.

РОЛЬ РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЁНКА В СЕМЕЙНОЙ СРЕДЕ

Эсонов О.А.

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологии

Кафедра иностранных языков

Аннотация: В статье анализируется влияние родительских отношений в семье на формирование ребёнка как личности. В исследовании рассматриваются традиционные для узбекских семей воспитательные ценности, современные психологические подходы, а также значение личного примера родителей. Обосновано влияние психологической стабильности, дисциплины, заботы, требовательности и взаимного уважения в семейной среде на социальную активность, нравственные установки и

психологическую зрелость ребёнка. Также раскрывается роль сотрудничества семьи, школы и общественности в воспитательном процессе.

Ключевые слова: родительские отношения, семейное воспитание, психологическая среда, личный пример, узбекская семья, нравственное воспитание, развитие ребёнка.

THE ROLE OF PARENTAL RELATIONSHIPS IN SHAPING A CHILD'S PERSONALITY WITHIN THE FAMILY ENVIRONMENT

Esonov O.A.

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Department of Foreign Languages

Abstract:

This article analyzes the impact of parental relationships within the family on the formation of a child's personality. The study highlights upbringing traditions characteristic of Uzbek families, modern psychological approaches, and the significance of parents' personal example. It substantiates the influence of psychological stability, discipline, care, emotional warmth, and reasonable parental demands within the family environment on a child's social activity, moral values, and psychological maturity. In addition, the role of cooperation between the family, school, and community in the educational process is emphasized.

Keywords: parental relationships, family upbringing, psychological environment, personal example, Uzbek family, moral education, child development.

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy-tarbiyaviy institutlaridan biri hisoblanadi. Insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ijtimoiy xulqi va hayotga bo'lgan munosabati, avvalo, oiladagi tarbiyaviy muhit orqali shakllanadi. Bola hayotidagi dastlabki bilimlar, xulq me'yorlari va qadriyatlar aynan oila doirasida singdiriladi. Shu sababli ota-onaning o'zaro munosabati, tarbiyaga bo'lgan

yondashuvi va shaxsiy xulqi bolaning kelajakdagi hayot yo‘liga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy jamiyatda tarbiya masalasi faqat an’anaviy qarashlar bilan cheklanib qolmasdan, psixologik va pedagogik yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Ushbu maqolada ota-ona munosabatlarning bolalar tarbiyasiga ta’siri, psixologik pozitsiyalar, milliy xususiyatlar va zamonaviy tarbiya usullari tahlil qilinadi.

Psixologiya fanida oila ichidagi munosabatlar shaxsning turli psixologik pozitsiyalar orqali namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Ushbu pozitsiyalar tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Ota-onaning o‘rnida bo‘lgan shaxs nazorat, talabchanlik va mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. U bolaga nisbatan:

- ✓ qat’iy talab qo‘yadi;
- ✓ tartib-intizomni ta’minlaydi;
- ✓ rag‘bat va jazo mexanizmlaridan foydalanadi.

Mazkur xolatda tarbiya jarayonida zarur bo‘lsa-da, ortiqcha bosim bola ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu holatda “kattalarning” o‘rni maqbul va sog‘lom tarbiyaviy yondashuv hisoblanadi. Bu holatda ota-ona bola bilan tenglik asosida muloqot qiladi, mas’uliyatni bo‘lishadi va qarorlarni ongli ravishda qabul qiladi. Ushbu yondashuv bolaning mustaqil fikrlashi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini rivojlantiradi.

Mazkur holat hissiylik, ishonuvchanlik, mehrga ehtiyoj va tez ta’sirchanlik bilan tavsiflanadi. Agar ota-ona ushbu pozitsiyada qolib ketsa, tarbiyaviy jarayonda barqarorlik buziladi.

Oilada ushbu pozitsiyalarning muvozanatda bo‘lishi sog‘lom psixologik muhitni ta’minlaydi.

O‘zbek xalqining tarbiyaviy qarashlari asrlar davomida shakllangan bo‘lib, ular milliy urf-odatlar, diniy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlarga asoslanadi. An’anaviy tarbiya usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ tushuntirish va ishonitirish;

- ✓ nasihat berish;
- ✓ shaxsiy namuna ko'rsatish;
- ✓ rag'batlantirish va tanbeh berish;
- ✓ jamoatchilik ta'siri.

Bugungi kunda esa bolani shaxs sifatida hurmat qilish, uning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan demokratik tarbiya usullari keng qo'llanilmoqda.

Bunday sharoitda oiladagi ruhiy barqarorlik va iliq munosabatlar bolaning psixologik rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Mehr-muhabbat va o'zaro hurmat hukm surgan oilada ulg'aygan bola o'ziga ishongan, tashabbuskor va ijtimoiy faol bo'lib voyaga yetadi.

Ota va onaning talablarida uyg'unlik bo'lishi bolaning axloqiy qarashlari barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Bolani mehnatga jalb qilish orqali unda mas'uliyat, mustaqillik va intizom tuyg'ulari rivojlanadi.

Oilada aniq belgilangan rejim va ichki tartib bolaning hayotini tizimli tashkil etishga yordam beradi. Rejim:

- ✓ bilim olish samaradorligini oshiradi;
- ✓ sog'lom turmush tarzini shakllantiradi;
- ✓ tartiblilik va mas'uliyatni mustahkamlaydi.

Eng muhim jihat shundaki, ota-onaning o'zi rejimga amal qilishi bola uchun eng kuchli namuna hisoblanadi.

Tarbiyada eng samarali vosita bu — shaxsiy namuna. Ota-onaning kundalik xulqi, muomalasi, mehnatga munosabati va axloqiy qarashlari bola ongida chuqur iz qoldiradi.

Samarali tarbiya usullari:

- ✓ ibrat-namuna ko'rsatish;
- ✓ tushuntirish va suhbat;
- ✓ rag'batlantirish;

- ✓ vaziyatga mos tanbeh;
- ✓ diniy va axloqiy o'gitlar.

Ota-onaning o'zaro hurmatga asoslangan munosabati bolaning ijtimoiy xulqini shakllantiradi. Bunday oilada ulg'aygan bolada ijobiy muloqot ko'nikmalari rivojlanadi. Aksincha, doimiy nizolar hukmron bo'lgan muhit bola ruhiyatida qo'rquv va ishonchsizlikni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, oila bola tarbiyasining asosiy manbai hisoblanadi. Ota-onaning o'zaro munosabati, tarbiyaga bo'lgan mas'uliyati va shaxsiy namunasi bolaning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishini belgilaydi. Tarbiyada mehr-oqibat va talabchanlik uyg'unligi, intizom va axloqiy qadriyatlarning birligi sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev M. **Madaniyat va ma'naviyat masalalari**. – Toshkent: Muloqot, 1998.
2. Abdullajonova D. **Milliy xotira va ijtimoiy ong** // Jamiyat va boshqaruv. – 2004.
3. Abduraxmonov A. **Axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlar** // Sharq yulduzi. – 1990.
4. Toshxonov L.T. **Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar**. – Andijon, 2016.